



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOSHLANG'ICH TA'LIMNING GLOBAL
MASALALARI: MUAMMO,
TADQIQOT, NAZARIYA, AMALIYOT**
Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
2025-yil 20-noyabr, Navoiy shahri

**GLOBAL ISSUES OF PRIMARY EDUCATION:
PROBLEM, RESEARCH, THEORY, PRACTICE**
oInternational scientific and practical conference
November 20, 2025, Navoi city

**ГЛОБАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАЧАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМА,
ИССЛЕДОВАНИЕ, ТЕОРИЯ, ПРАКТИКА**
Международная научно-практическая
конференция 20 ноября 2025 года, г.Навои



Navoiy-2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**“BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING GLOBAL MASALALARI:
MUAMMO, TADQIQOT, NAZARIYA, AMALIYOT”
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI
TO‘PLAMI**

**COLLECTION OF MATERIALS THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-
PRACTICAL CONFERENCE ON THE THEME
“GLOBAL ISSUES OF PRIMARY EDUCATION DEVELOPMENT:
PROBLEM, RESEARCH”**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ
«ГЛОБАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ:
ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ»**

2025-yil 20-noyabr



Navoiy – 2025

O‘O‘K: 811.512.131

Boshlang‘ich ta‘limning global masalalari: muammo, tadqiqot, nazariya, amaliyot” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Navoiy, 2025. – 394 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli buyrug‘iga binoan 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasining 1-ilovasiga binoan Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti “Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrasidan 2025-yil 20-noyabr kuni “Boshlang‘ich ta‘limning global masalalari: muammo, tadqiqot, nazariya, amaliyot” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan mutaxassislar, olimlar, pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas‘ul muharrirlar:

M.Ernazarova – filologiya fanlari doktori, professor

G.Shamsidinova – biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

G‘.Hamroyev – Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

M.Suyunov – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

M.Pardayeva – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida dots.v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

S.Kodirova – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

F.Holikulova – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida prof.v.b., pedagogika fanlari doktori (DSc)

R.Ravshanova – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

M.Jumayeva – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

R.Isroilova – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

A.Najimova – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida katta o‘qituvchisi

I.Norova – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi

Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti Kengashining 2025-yil 15-noyabrda navbatdan tashqari yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

mustahkamlash borasidagi qator muammolarni hal qilishga yordam beradi. O'quvchilarga matn bilan, kitob bilan mustaqil ishlash malakalarini rivojlantirish xususiyatiga ham ega.

Ushbu didaktik o'yin ikki xil usulda qo'llanilishi mumkin. O'quvchilarga mavzuning tayyor matni tarqatiladi va ular mavjud bilimlaridan kelib chiqqan holda, matnda quyidagi belgilarni belgilab chiqadilar.

Matnda belgilash tizimi:

- men buni bilaman

+ men uchun yangi axborot

- to'g'ri kelmadi, mening bilganlarimga qarama-qarshi

? men uchun noma'lum, tushunmadim, menga qo'shimcha axborot kerak

Ikkinchi usuli o'quvchilarga tayyor jadval beriladi. Ular avval egallangan bilimlaridan kelib chiqqan holda fan yoki mavzu bo'yicha tushuncha va atamalarni jadvalga belgilab boradilar.

- men buni bilaman

+ men uchun yangi axborot

-to'g'ri kelmadi, mening bilganlarimga qarama-qarshi

? men uchun noma'lum, tushunmadim, menga qo'shimcha axborot kerak

Xulosa qilob aytganda bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir.

Adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev “ Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – faravon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” T.- “ O'zbekistonv-2018 31-b

2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T.: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 5-jild, 2003. 613-bet.

3. A.G'ulomov, M. Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova Ona tili o'qitish metodikasi -T:., Fan va texnologiya”

BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA IQTISODIY RESURLAR TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK OMILLARI.

Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li-
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Iqtisodiyot va menejment kafedrası v.b. dotsenti, PhD
+998942270000

ismoil_zaynutdinov@tsuos.uz

Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li-
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
+998889099293

shohruh_mardonov@tsuos.uz

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda iqtisodiy resurslarni taqsimlash samaradorligi tahlil qilinadi. Ta'lim tizimining iqtisodiy infratuzilmasi, byudjet mablag'larining maqsadli yo'naltirilishi hamda ta'lim jarayoniga xususiy sektorni jalb etish mexanizmlari o'rganiladi. Shuningdek, global tajriba asosida resurslardan oqilona foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish omillari yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, iqtisodiy resurslar, samaradorlik, ta'lim sifati, byudjet siyosati, inson kapitali.*

1. Kirish.

Boshlang'ich ta'lim inson kapitalini shakllantirishning boshlang'ich bosqichi bo'lib, mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [1: 45]. Ta'lim sifati qanchalik yuqori bo'lsa, kelajakdagi mehnat unumdorligi va innovatsion salohiyat shunchalik oshadi

[2: 61]. Shu bois boshlang'ich ta'limni rivojlantirish nafaqat pedagogik, balki iqtisodiy ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, maktablarni jihozlash, o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha sezilarli mablag'lar yo'naltirilmoqda. Biroq resurslar taqsimoti hamisha ham natija bilan bog'lanmagan: mablag'lar ko'proq infratuzilmaga yo'naltiriladi, o'quv sifatini bevosita belgilovchi omillar – o'qituvchi malakasi, darslik sifati, raqamli ta'lim muhitining mavjudligi – yetarli darajada moliyalashtirilmay qoladi [3: 92].

Ilgari olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish rentabellik va barqarorlikka olib kelishi isbotlangan. Masalan, aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarini samarali boshqarish foyda marjasini oshirishi mumkinligi ko'rsatilgan [4: 101]. Moliyaviy aktivlarni to'g'ri tasniflash va boshqarish esa tashkilotning umumiy barqarorligini ta'minlaydi [5: 47]. Ushbu yondashuvni ta'lim tizimiga moslashtirish shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda ham mablag' nafaqat qancha ajratilgani, balki u qanday sarflanayotgani va qanday natija berayotgani bo'yicha baholanishi kerak.

2. Adabiyotlar sharhi.

Boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va uning iqtisodiy asoslarini tahlil qilish masalasi so'nggi yillarda ko'plab xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda o'rganilgan. Jahon tajribasida inson kapitali nazariyasi ta'limni iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida talqin etadi. G. Bekker (1993) ta'limga qilingan har qanday investitsiyani inson kapitaliga sarmoya sifatida baholab, bu sarmoya mehnat unumdorligi va milliy daromadning o'sishiga olib kelishini ta'kidlaydi [1: 45]. Shunga o'xshash xulosalar OECD (2021) va UNESCO (2023) hisobotlarida ham qayd etilib, boshlang'ich ta'limning sifatini oshirish uchun resurslarni adolatli taqsimlash va natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish muhimligi ko'rsatilgan [2: 78].

Jahon bankining (2022) "Uzbekistan Education Sector Analysis" hisobotida mamlakatda ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan mablag'larning hajmi ortgani, biroq ularning samaradorligi bo'yicha tahliliy mexanizmlar yetarli darajada shakllanmagani ta'kidlanadi [3: 91]. Mazkur holat O'zbekiston ta'lim tizimida iqtisodiy resurslarni taqsimlashda nazorat va natijadorlik baholash tizimlarini kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlar ichida Zaynutdinov I. S. tomonidan olib borilgan ishlar alohida e'tiborga loyiq. 2021 yilda muallif "Analysis of the Effectiveness of Receivables Management" nomli maqolasida moliyaviy oqimlarni tahlil qilishning samarali usullarini ishlab chiqib, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy resurslarning aylanish tezligi muhim ahamiyatga ega ekanini ilmiy asoslab berdi [4: 89].

Mavjud adabiyotlar ta'limning iqtisodiy samaradorligi masalasi global miqyosda dolzarb ekanligini tasdiqlaydi. Biroq boshlang'ich ta'lim darajasida resurslar taqsimotining iqtisodiy mexanizmlarini mahalliy sharoitda modellashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Shu bois ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni ta'lim resurslari taqsimotining iqtisodiy tahlilini ishlab chiqishga qaratilgan.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda iqtisodiy resurslar taqsimoti va samaradorlik omillarini tahlil qilish uchun **tizimli, qiyosiy va empirik yondashuvlar** qo'llanildi.

Birinchidan, **tizimli tahlil metodi** yordamida ta'lim tizimining moliyaviy, tashkiliy va ijtimoiy tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi. Bu yondashuv orqali iqtisodiy resurslar taqsimoti bilan ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar orasidagi sabab-oqibat munosabatlari aniqlangan [1: 45].

Ikkinchidan, **qiyosiy tahlil** usuli asosida Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya va O'zbekistonning boshlang'ich ta'limdagi moliyalashtirish modellari solishtirildi. Qiyosiy yondashuv global tajribadan samarali elementlarni mahalliy sharoitga moslashtirish imkonini berdi [2: 78].

Uchinchidan, **empirik tahlil** metodlari orqali O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va Jahon banki ma'lumotlari tahlil qilindi. Ushbu statistik bazalar asosida ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan mablag'larning dinamikasi, hududlar kesimidagi taqsimoti va natijadorlik darajalari o'rganildi [3: 91].

To‘rtinchidan, muallifning avvalgi ilmiy ishlari metodologik asos sifatida foydalanildi. Jumladan, 2021 yilgi ishda ishlab chiqilgan **debitorlik qarzlarni boshqarish modeli**, 2022 yilda taklif etilgan **moliyaviy aktivlar tasnifi tizimi**, hamda 2023 yilda ishlab chiqilgan **pul oqimlarini samarali boshqarish konsepsiyasi** ushbu tadqiqotda **“Resurs – Sifat – Natija”** modelini ishlab chiqishda asos bo‘ldi [4: 89; 5: 47; 6: 101].

Metodologik jihatdan tadqiqot **“iqtisodiy samaradorlik = resurs / natija”** formulasiga tayanadi. Bu formula asosida ta‘limga yo‘naltirilgan mablag‘larning ta‘lim sifatiga ta‘siri o‘lchandi va boshlang‘ich ta‘lim tizimida natijaga yo‘naltirilgan moliyaviy boshqaruv mexanizmi ishlab chiqildi.

Natijada, tadqiqot metodologiyasi ta‘lim iqtisodiyoti, resurslarni boshqarish nazariyasi va inson kapitali kontsepsiyasini uyg‘unlashtirishga asoslangan bo‘lib, u keyingi tahlil va muhokama bo‘limlarining ilmiy asosini tashkil etadi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirishda iqtisodiy resurslarning to‘g‘ri taqsimlanishi eng muhim omil hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti tahliliga ko‘ra, 2024 yilda umumiy ta‘lim tizimiga yo‘naltirilgan mablag‘larning qariyb **26,4 foizi** ta‘lim sohasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa-da, bu mablag‘larning atigi **7,8 foizi** boshlang‘ich bosqichga yo‘naltirilgan [1: 45]. Bu esa resurslar taqsimotining nomutanosibligi va samaradorlik ko‘rsatkichlarining pastligiga olib kelmoqda.

Resurslar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ajratilgan mablag‘larning 68 foizi o‘qituvchilar ish haqi va ijtimoiy to‘lovlarga sarflanadi, 22 foizi infratuzilma va ta‘mirlash ishlari uchun, atigi 10 foizi esa o‘quv-uslubiy vositalar, darsliklar va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun yo‘naltirilmoqda [2: 61]. Bu holatda ta‘lim natijasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi resurslar ulushi juda past.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich ta‘limda iqtisodiy samaradorlikni baholashda **“Resurs – Sifat – Natija” modeli** eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Ushbu model bo‘yicha o‘quvchilar savodxonligi darajasi (PIRLS mezon bo‘yicha) bilan bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan xarajat o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti **r = 0,63** ni tashkil etdi, bu o‘rtacha ijobiy bog‘liqlikni bildiradi. Ya‘ni, mablag‘lar oqilona taqsimlanganda ta‘lim sifati sezilarli oshadi.

Muallifning 2023 yildagi tadqiqotida aksiyadorlik jamiyatlarida **pul oqimlarini boshqarish samaradorligi** foyda marjasini 12–15 foizgacha oshirganligi aniqlangan [3: 101]. Ushbu modelni ta‘lim tizimiga moslashtirib, moliyaviy resurslarning qaytish darajasi (ROI – Return on Investment) o‘rganilganda, samarali boshqaruv sharoitida ta‘limga sarflangan har 1 milliard so‘m **1,3 milliard so‘mlik ijtimoiy-iqtisodiy qiymat** yaratishi mumkinligi hisoblab chiqildi.

Finlyandiya va Singapur tajribalarida resurslar taqsimoti natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv (Result-Based Budgeting) tamoyiliga asoslanadi [4: 78]. Ushbu mamlakatlarda o‘qituvchilar malakasini oshirishga ajratilgan xarajatlar umumiy ta‘lim byudjetining **15–20 foizini** tashkil etadi. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich **7–8 foizdan oshmaydi**, bu esa o‘qituvchi kompetensiyasining resurs samaradorligiga bevosita ta‘sirini cheklaydi.

Hududiy tahlil natijalariga ko‘ra, poytaxt va viloyatlar o‘rtasidagi ta‘lim resurslari taqsimotidagi tafovut 1,8 baravarga teng. Masalan, Toshkentda bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan yillik xarajat **7,2 mln so‘m**, Qashqadaryoda esa **4,1 mln so‘mni** tashkil etadi. Bunday nomutanosiblik ta‘lim sifatining hududlar kesimidagi farqlarini kuchaytiradi [5: 47].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy resurslarni samarali boshqarish ta‘lim sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Resurslarning faqat hajmi emas, balki **ularning tuzilmasi va yo‘nalishlari** ham muhim. Muallifning oldingi ilmiy ishlari [3; 5; 6]da ishlab chiqilgan pul oqimlari va aktivlarni boshqarish yondashuvlari asosida ta‘lim tizimida ham natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv modelini tatbiq etish samarali natijalar beradi.

Demak, boshlang‘ich ta‘lim tizimida iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash uchun quyidagi shartlar muhim:

1. Moliyalashtirishni natijaviy ko‘rsatkichlarga bog‘lash;
2. O‘qituvchilar malakasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushini oshirish;
3. Hududlar kesimidagi resurs taqsimotini balanslash;
4. Davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish;
5. Xarajatlar monitoringi va natija auditi tizimini joriy etish.

5. Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish jarayonida iqtisodiy resurslarning hajmidan ko'ra ularning **oqilona taqsimlanishi va natijaga yo'naltirilgan boshqaruvi** muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimiga ajratilayotgan mablag'larning samaradorligi ko'p hollarda ularni qanday sarflashga bog'liq bo'lib, o'qituvchi malakasi, o'quv-uslubiy ta'minot va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar eng yuqori qaytish (ROI) darajasini beradi.

Resurslardan foydalanishda mavjud nomutanosibliklar (hududlar o'rtasidagi farqlar, infratuzilma ustuvorligi, o'quv jarayoniga bevosita ta'sir qiluvchi xarajatlarning kamligi) ta'lim sifatining izchil oshishiga to'siq bo'lmoqda. Shu sababli, ta'lim iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda "Resurs – Sifat – Natija" modeli asosida moliyaviy monitoring tizimini joriy etish zarur.

Tahlil natijalariga ko'ra, o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlashga yo'naltirilgan xarajatlar ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bu yo'nalishdagi moliyalashtirish ulushini kamida **15 foizgacha** oshirish, xalqaro tajribada qo'llaniladigan **doimiy kasbiy rivojlanish (CPD)** tizimini joriy etish zarur.

Hududlar o'rtasidagi moliyalashtirish tafovutlari ta'lim sifati tengsizligiga olib kelmoqda. Shu bois, "**Hududiy ta'lim fondi**" tashkil etilib, kam ta'minlangan hududlarga qo'shimcha resurslar ajratish mexanizmini yo'lga qo'yish lozim.

Mablag'larning ma'lum qismini raqamli o'quv vositalari, onlayn ta'lim platformalari va elektron baholash tizimlarini rivojlantirishga yo'naltirish ta'lim samaradorligini oshiradi. Bu jarayonda xalqaro tashkilotlar (UNESCO, World Bank) grantlarini jalb qilish maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich ta'limda davlat-xususiy sheriklik (PPP) loyihalarini yo'lga qo'yish orqali darsliklar, laboratoriya uskunalar va raqamli kontent ishlab chiqishda xususiy investorlarni jalb etish mumkin. Bu ta'lim tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Har bir ta'lim muassasasida "**Efficiency Index**" yoki "**Resurs – Natija**" modeli asosida o'z faoliyati natijasini moliyaviy ko'rsatkichlar bilan baholovchi ichki tahlil tizimi yaratilishi lozim. Bu tizim har bir maktab uchun shaffof va solishtiriladigan moliyaviy monitoringni ta'minlaydi.

Resurslardan foydalanish samaradorligini nazorat qilish uchun Xalq ta'limi vazirligi huzurida **mustaqil iqtisodiy tahlil markazi** tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Markaz ta'lim sifatini moliyaviy samaradorlik mezonlari bilan bog'liq holda baholaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Becker, G. S. (1993). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis*. – Chicago: University of Chicago Press. – 412 b.
2. OECD. (2021). *Education at a Glance 2021: OECD Indicators*. – Paris: OECD Publishing. – 487 p.
3. UNESCO. (2023). *Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education*. – Paris. – 264 p.
4. World Bank. (2022). *Uzbekistan Education Sector Analysis*. – Washington, DC: World Bank Group. – 198 p.
5. Samariddinovich, Z. I. (2021). *Analysis of the Effectiveness of Receivables Management*. *American Journal of Economics and Business Management*, 4(7), 86–92.
6. Samariddinovich, Z. I. (2023). *Ways to Increase Profit Margins through Effective Cash Flow Management in Joint Stock Companies*. – *American Journal of Economics and Business Management*, 5(3), 112–120.
7. Zaynutdinov, I. (2022). *МОЛИЯВИЙ АКТИВЛАРНИНГ ТАСНИФЛАНИШИ ВА УЛАРНИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРИШНИНГ ФУНКЦИОНАЛ ЭЛЕМЕНТЛАРИ*. *Архив научных исследований*, 2(1).
8. Rahimov, M. (2020). *Ta'lim iqtisodiyoti asoslari*. – Toshkent: TDYUI nashriyoti. – 328 b.
9. OECD & World Bank. (2020). *Effective Financing of Education Systems in Developing Countries*. – Paris–Washington. – 232 p.